
ShO'R YuVISH TADBIRLARI DAVOM ETMOQDA

Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda, sho'r yuvish ishlarini amalga oshirishda Rishton tumanida ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. "Erlarni sho'r yuvishga tayyorlash va sho'r yuvish ishlarini tizimli tashkil etishga, ularning sifati va suv iste'molini nazorat qilishga yetarli e'tibor berilmoqda.

Agroklasterlar, fermer va dehqon xo'jaliklari tomonidan yerlarni sho'r yuvishga tayyorlash va sho'rini yuvishda agrotexnika qoidalariga rioya qilish natijasida suv isrofgarchiligiga yo'l qo'yilmadi. Sho'r yuvish ishlarining samarasi esa yaxshi bo'lmoqda. Suvni tejaydigan sug'orish va lazerli yer tekislash texnologiyalari joriy qilingan maydonlarda yerni sho'r yuvishga tayyorlash va sho'rini yuvish ishlarini amalga oshirish yuzasidan xorijiy tajribalarni o'rganish, yangi ilmiy-tadqiqot ishlarini yaratish ishlari tuman fermerlariga katta natija bermoqda.

2023-01-20 16:46:35